

45

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



2020 yil "22" 08

2020 yil "22" 08


Ro'yxatga olindi: № BD-5120100
2020 yil "22" 08

O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT TABIIY VA IQTISODIY
GEOGRAFIYASI (ARAB MAMLAKATLARI)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishlari:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari) 5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari) 5120300 – Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha)

Toshkent – 2020



BT

	9. Исаев В.А., Филоник А.О. Продовольственная проблема в арабских странах в свете вызовов «зеленой» экономики /Мир новой экономики – 2020. – №1. – с.34-43. 10. Чумаков А.Н. Глобализация контуры целостного мира. М.: Проспект, 2009.-432 с. 11. World Population Prospects 2019. United Nations New York, 2019. – 46 p. Axborot manbaalari 12. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali. 13. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 14. www.tradingeconomics.com – ekonomicheskies pokazateli 15. https://unctadstat.unctad.org – savdo va rivojlanish bo‘yicha BMT konferensiyasi sayti 16. http://uzgeo.uz – O‘zbekiston geograflari jamiyati sayti
7.	Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil “<u>29</u>” <u>08</u>” <u>4</u>” -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “<u>29</u>” <u>08</u>” <u>452</u>” -sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun ma’sullar: Qodirjonov A.M. – ToshDSHU, “SHarq mamlakatlari iqtisodiyoti” kafedrası o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: Jo‘raev T.T. – TMI, “Iqtisodiyot” kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori, professor (turdosh OTM) Hoshimov P.Z. – O‘zMU, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).

Fan/modul kodi IMG122	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	O‘rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (arab mamlakatlari)	30	30	60
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda tabiiy va iqtisodiy jarayonlarning makon omili to‘g‘risidagi bilimlar tizimini shakllantirish, arab mamlakatlari tabiiy va iqtisodiy geografiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu xususiyatlarning mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o‘rni va rolini tahlil qila olish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarda zamonaviy dunyo, arab mamlakatlarining jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni va roli to‘g‘risida yaxlit tasavvurni, shuningdek, zamonaviy geografik makonni hududiy tashkil etishning turli-tumanligi va tizimliliigi haqidagi bilimlarni shakllantirish, o‘rganilayotgan mintaqalari mamlakatlari tabiiy va iqtisodiy geografiyasi to‘g‘risidagi tasavvurni chuqurlashtirish, tipologik yondoshuv asosida talabalarining o‘rganilayotgan mamlakat geografiyasi va ularning jahon xo‘jaligidagi roli to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. “O‘rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (arab mamlakatlari)” faniga kirish “O‘rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (arab mamlakatlari)” fanining predmeti va uslublari, ob’ekti va sub’ekti. Fanning asosiy tushunchalari va atamallari. Geografik joylashuv va uning turlari. Iqtisodiy geografiyaning joylashuv xususiyatlari va tahlil usullari. 2-mavzu. Arab mamlakatlarining geografik joylashuvi va tabiiy-resurs salohiyati Arab mamlakatlarining ma’muriy-hududiy tuzilishi va geografik joylashuvi xususiyatlari. Arab mamlakatlari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Tabiiy resurslarning arab mamlakatlari iqtisodiyotidagi roli. Foydali qazilmalar geografiyasi.			

	3-mavzu. Arab mamlakatlarning aholi geografiyasi Arab mamlakatlari aholisi soni, tarkibi va joylashuvi. Arab mamlakatlari aholisining tabiiy va mexanik harakati xususiyatlari. Arab mamlakatlarida davlatning demografik siyosati yo'nalishlari. 4-mavzu. Arab mamlakatlari iqtisodiyoti tarmoqlari geografiyasi Arab mamlakatlari iqtisodiyotining tarmoq tuzilishi. Sanoatning arab mamlakatlari iqtisodiyotidagi ahamiyati, tarkibi va rivojlanish darajasi. Arab mamlakatlarining qayta ishlash sanoati. Arab mamlakatlarining qishloq xo'jaligi geografiyasi: rivojlanishi va joylashishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Arab mamlakatlarida oziq-ovqat xavssizligi muammosi. 5-mavzu. Arab mamlakatlarining transport va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi Arab mamlakatlari transport tizimining milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'rni va rivojlanish xususiyatlari. Transport turlari, xalqaro va ichki transport. Tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi va uning tarkibi. III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. "O'rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (arab mamlakatlari)" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi 2. Jahon tabiiy va iqtisodiy xaritasi bilan ishlash 3. Aholining irqiy, etno-lingvistik va konfessional tarkibi 4. Arab mamlakatlarida qayta ishlash sanoati rivojlanishi va joylashishidagi yangi tendensiyalar 5. Arab mamlakatlari tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishlari IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Hudud tushunchasi, alohida resurs sifatida hududning ahamiyati. 2. Arab mamlakatlarining iqtisodiy-geografik joylashuvi 3. Arab mamlakatlarida aholi joylashuvining asosiy jihatlari va xususiyatlari 4. Arab mamlakatlarida sanoat rivojlanishining tabiiy resurs salohiyati. Arab mamlakatlari qishloq xo'jaligi rivojlanishida tabiiy shart-sharoitlarning o'rni va ahamiyati 5. Arab mamlakatlarining xalqaro transport tizimi rivojlanishida tutgan o'rni
3.	V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • arab mamlakatlari tabiiy va iqtisodiy geografiyasining asosiy tushunchalari va atamaları, kursning boshqa fanlar bilan aloqalari, tabiiy va

	iqtisodiy geografiyaning nazariy asoslari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • arab mamlakatlari tabiiy va iqtisodiy geografiyasi xususiyatlarini bilish, o'rganilayotgan mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy-geografik rivojlanishini tahlil qilish uchun axborotlar, statistik ma'lumotlarni izlab topish, saralash va ulardan foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • iqtisodiy-geografik jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, arab mamlakatlari aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishini tahlil qila olish malakasiga <i>ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Сапронова М.А. Арабо-мусульманский мир: история, география, общество: учеб. пособие / М.А.Сапронова. – Казань: Казан. ун-т, 2013. – 360 с. 2. Абдалова З.Т., Тожиева З.Н. Иқтисодий география: ўқув қўлланма. – Т.: "Молия", 2013. – 219 б. 3. Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1: учебник для бакалавров / И. А. Родионова. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2015. – 431 с. 4. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. – Т.: 2014. – 387 б. Qo'shimcha adabiyotlar 5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б. 6. Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. /Ш.М.Мирзиёев. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 592 б. 7. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. /Ш.М.Мирзиёев. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 512 б. 8. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажиги фаровон бўлади. 3-жилд. /Ш.М.Мирзиёев. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.